

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

USMONOVA XILOLA ISROPILOVNA

**ZnO NANOMATERIALLARINI SOPONENLAR VA FLAVONOIDLARNI
SIRT FAOL MODDA SIFATIDA QO‘LLAB, SINTEZI VA ULARNING
FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI**

02.00.04 – Fizik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Usmonova Xilola Isropilovna

ZnO nanomateriallarini soqonlar va flavonoidlarni sirt faol modda sifatida qo‘llab, sintezi va ularning fizik-kimyoviy xossalari..... 3

Усмонова Хилола Исропиловна

Синтез наноматериалов ZnO с использованием сапонинов и флавоноидов в качестве поверхностно-активных веществ и их физико-химические свойства 21

Usmonova Khilola Isropilovna

Synthesis of ZnO nanomaterials using saponins and flavonoids as surfactants and their physicochemical properties 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 44

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

USMONOVA XILOLA ISROPILOVNA

**ZnO NANOMATERIALLARINI SOPONENLAR VA FLAVONOIDLARNI
SIRT FAOL MODDA SIFATIDA QO‘LLAB, SINTEZI VA ULARNING
FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI**

02.00.04 – Fizik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/K769 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Muxamadiyev Nurali Qurbonaliyevich**
kimyo fanlari doktori, proffesor

Rasmiy opponentlar: **Eshmamatova Nodira Baxromovna**
kimyo fanlari doktori, dotsent

Murodova Dilafuz Kadirovna
kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «3» dekabr soat 10:00 dagi yig'ilishida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Biokimyo instituti, Kimyo binosi. Tel.: (+99866) 239-12-47, faks: (0366) 239-11-40, e-mail: devonxona@samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (98 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «22» dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «22» dekabr dagi № 7 - raqamli reyestr bayonnomasi).



A.M. Nasimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

J.R. Uzokov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, PhD

O.N. Ro'zimiradov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ZnO nanomateriallari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning noyob fizik va kimyoviy xossalari, ayniqsa taqiqlangan energiya sohasining kengligi (3,37 eV), yuqori fotobarqarorligi, piezoelektrik va fotokatalitik faolligi, ularni zamonaviy texnologiyalarning turli sohalarida keng qo'llash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda ZnO asosida olingan nanomateriallar optoelektronika (UV-detektorlar, diodlar, quyosh batareyalari), biotibbiyot (antibakterial qoplamalar, biosensorlar, dori tashuvchi tizimlar), ekologiya (organik ifloslantiruvchilarni fotokatalitik parchalanishi) hamda energetika (gaz sezgichlar va superkondensatorlar) sohalarida asosiy materiallar sifatida keng qo'llanilmoqda. Shuning uchun ham ZnO nanomateriallari "yashil" texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya va nanoelektronika rivojida strategik ahamiyatga ega.

Jahondagi ko'plab ilmiy markazlarda ZnO nanomateriallarni olishning va ularning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etishning metodologik asoslarini ishlab chiqishda hamda ularning fotokatalitik xossalarini yaxshilashda ma'lum yutuqlarga erishmoqda. Bu borada zarrachalarning o'lchami, morfologiyasi va boshqa fizik-kimyoviy xossalarini sintez jarayonlari orqali maqbullashtirish, kristall strukturadagi nuqsonlarni bartaraf etish orqali elektron-tirqish juftligi rekombinatsiyasini kamaytirish, metallar yordamida dopirlash va kompozit strukturalar tizimi kiritish orqali yorug'likni ko'rinadigan sohagacha kengaytirish hamda oqova suvdan organik ifloslovchilarni degradatsiyalash borasida olib borilgan ishlar diqqatga sazovordir. Shu bilan bir qatorda ZnO nanomateriallarni fotokatalizator sifatida sanoat va ekologiyada qo'llanilish imkoniyatlari isbotlanishiga qaramasdan ishlab chiqarish, xavfsizlikni kafolatlash va keng qo'llanilishi uchun standartlashtirish kabi muammolar hanuzgacha yechimini kutmoqda.

Respublikamizda ham ZnO nanozarrachalarining sintezi va xossalarini tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda hamda uning fotokatalitik xossalari o'rganilgan, vodorod olishda, suvni turli xil organik ifloslovchilardan tozalashda qo'llanilishi bo'yicha ijobiy natijalarga erishilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"¹gi Farmonida "mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish"ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu boisdan ZnO nanomateriallarni sintez yo'llarini ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish hamda uning fotokatalitik, sorbsion, antimikrob xossalarini tadqiq etish va sensor qurilmalar tayyorlashda qo'llanilish imkoniyatlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida, 2018-yil 25-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kimyo

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3983-son, 2019-yil 3-apreldagi "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4265-son, 2021-yil 13-fevraldagi "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4992-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyodagi ko'pgina mamlakatlarning ilmiy markazlarida nanoo'lchamdagi rux oksidi materiallar sintez qilish va ularning tekstur, katalitik, sorbsion kabi xarakteristikalarini o'rganish hamda olingan materiallarni qo'llanilish imkoniyatlarini baholash bo'yicha talaygina tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu borada Wang B., Nagase S., Zhao C., Sanyal B., Mookerjee A., Bovhyra R. Ab., Venhryn Y. I., Al-Sunaidi A. A., Hilal I. H., Jabbar R. H., Jabbar S. J., Shastri R., Cheng X., Li F., Zhao Y.A., Martins R.M.S., Diyarov A. A., Sanakousar M.F., Chandiramouli R., Sriram S., Balamurugan D. Šarić A., Despotović I., Štefanić G., Hadipour N. L., Ahmadi Peyghan A., Soleymanabadi H., Ahmad Siddiqui S., Abdullah M.M., Chandiramouli R., Thayumanavan A., Srinivasaraghavan R., Ovsiannikova L., Cheng X., Zhao M., Freeman C. L., Perdew J. P., Burke K., Ernzerhof M., Perdew J. P., Park Y.S., Pauku Y., Michalkova A. va boshqalarning xizmatlari salmoqli bo'lib, ular tomonidan nanoo'lchamdagi rux oksidi materiallar hamda ularning turli kompozitlarini olishning samarali usullari yaratilgan. Shuningdek, ularning tekstur, sorbsion xarakteristikalari zamonaviy usullarda tadqiq etilgan.

O'zbekistonda mazkur yo'nalish rivojiga Ro'zimurodov O.N., Diyarov A., Oripov A.E., Muminov S.Z., Raxmatkariev G.U., Kabulov B.J., Muxamadiev N.Q., Uzokov J. R., Eshmbetov I.D., Ismoilov R.I. va boshqalar o'zlarining mahalliy xom-ashyolar asosida sorbentlar olish, tabiiy va sintetik seolitlarni modifikatsiyalash, ularning sorbsion hamda tekstur xarakteristikalarini o'rganish, oqova suvlarni turli qo'shimchalardan tozalash kabi muammolarni hal etishga qaratilgan izlanishlari bilan salmoqli hissa qo'shishgan.

Shunga qaramasdan tekstur xarakteristikalarni boshqarib, berilgan xossani nomoyon qiladigan nanoo'lchamdagi ZnO sintez qilish va ularning fotokatalitik, sorbsion, antimikrob xossalarini o'rganish dolzarb muammolardan bo'lib, muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy yo'nalishdir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasining "Tabiiy va sintetik materiallarni sintez qilish, tekshirish va qayta ishlashning yangi usullari" mavzusi va OT-F7-83-85 "Xromatografik jarayonlarni

modellash, maqbullash va ushlanish kattaliklari-xossalari o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rganish va ularni nanoxromatografiyada qo‘llanilishi” mavzusidagi davlat granti doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ZnO nanomateriallarini soponenlar va flavonoidlarni sirt faol modda sifatida qo‘llab, sintezi va ularning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

saponinlar va flavonoidlarni sirt faol modda sifatida qo‘llab, ZnO nanomateriallarini sintez yo‘lini ishlab chiqish va jarayonni maqbullashtirish;

(ZnO)_n nanoklasterlarining xossalarini DFT usulida o‘rganish;

sintez qilingan ZnO nanomateriallarining fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash va baholash.

sintez qilingan ZnO nanomateriallarining spektral xossalarini o‘rganish va fotokatalitik xossalarini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida rux atsetat, rux nitrat, rux xlorid, tetroetoksisilan, etil spirt, yetmak o‘simligidan olingan saponinlar, flavanoidlar va organik erituvchilar olingan.

Tadqiqotning predmetini Zol-gel texnologiya, kvant-kimyoviy hisoblashlar, saponinlar va flavanoidlarni qo‘llab, ZnO nanomateriallarini olish va ularning tekstur, sorbsion va fatokatalitik faolliklarini o‘rganish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada zamonaviy fizik-kimyoviy, spektroskopik (UB-, KS-, IQ-), skanerlovchi elektron mikroskopiya, rentgen difraktometriya, porometriya, kinetik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

saponinlar sirt faol modda va flavonoidlarni barqarorlashtiruvchi sifatida qo‘llab, ZnO nanomateriallarini sintez qilish yo‘li ishlab chiqilgan va jarayon maqbullashtirilgan;

(ZnO)_n nanoklasterlarining tuzilishi va elektron xossalari kvant-kimyoviy usullarda baholangan hamda klasterda molekulalar sonining ortishi taqiqlangan hudud o‘lchamini kamayishiga olib kelishi aniqlangan;

ZnO nanomateriallarining sirt morfologiyasi, sorbsiya izotermasi, fotokatalitik xarakteristikalarini baholangan va Fe³⁺ ionlari bilan doperlash yutiladigan nurni ko‘rinish sohasiga siljishi isbotlangan;

ZnO nanomateriallarining fotokatalitik reaksiyalarda digratatsiya darajisi 91,5 % ni tashkil etishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ZnO nanomateriallarini sintez qilishning metodikasi ishlab chiqilgan;

(ZnO)_n nanoklasterlarining xossalarini kvant-kimyoviy usulda o‘rganish metodikasi ishlab chiqilgan;

ZnO nanomateriallarining tekstur va sorbsion xossalarini o‘rganish metodikasi ishlab chiqilgan;

ZnO nanomateriallaridan foydalanib, oqova suvlar tarkibidan organik bo‘yoqlarni tozalash metodikasi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy va sezgirligi yuqori bo‘lgan SEM, AKM, UB-, KS-, IK-spektroskopiya,

porometriya, fizik-kimyoviy, kinetik, statistik tadqiqot usullarni qo'llab, olingan natijalar asosida maqolalar chop ettirish, turli xalqaro va respublika miqiyosida o'tkazilgan konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, $(\text{ZnO})_n$ nanoklasterlarning tuzilma va elektron xossalari kvant-kimyoviy usullarda tahlil qilinib, ularning energetik barqarorligi, elektron zichlik taqsimoti va optik o'tish xususiyatlari aniqlangan. Saponinlar va flavonoidlarni sirt faol modda sifatida qo'llanilib, ZnO nanomateriallarini barqaror tizimlar holida sintez qilishning nazariy va eksperimental asoslari ishlab chiqilgan. Ushbu ilmiy yondashuvlar nanomateriallar kimyosining fundamental yo'nalishlarini boyitib, ularni fotokataliz, adsorbsiya va ekologik tozalash texnologiyalarida qo'llash imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati $(\text{ZnO})_n$ nanoklasterlarning xossalarini kvant-kimyoviy usulda o'rganish metodikasining ishlab chiqilishi, saponin va flavonoid asosidagi ZnO "yashil" sintez yo'lini yaratilganligi va uning iqtisodiy jihatdan samarali va qayta tiklanadigan manbalarga asoslangan texnologiya sifatida taklif etilganligi hamda oqova suv tarkibidagi organik bo'yoqlarni fotokatalitik yo'l bilan parchalashning amaliy usuli ishlab chiqilganligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. ZnO nanomateriallarini soptionlar va flavonoidlarni sirt faol modda sifatida qo'llab, sintezi va ularning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ZnO ni qo'llab, adsorbsion tozalash texnologiyasi O'zbekiston-Xitoy MChJ "AHMAD ISROIL TEX" qo'shma korxonada amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston-Xitoy MChJ "AHMAD ISROIL TEX" qo'shma korxonasining 2024 yil 28-oktyabrdagi 28/10-01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ZnO nanozarrachalarining faollashgan ko'mirga nisbatan bo'yoqlarni adsorbsiya qilish samaradorligi yuqori bo'lishi hamda tozalangan suvning sifati ekologik standartlarga muvofiq kelishini tasdiqlash imkonini bergan;

ZnO ni fotokatalizator sifatida qo'llash texnologiyasi O'zbekiston-Xitoy MChJ "AHMAD ISROIL TEX" qo'shma korxonada amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston-Xitoy MChJ "AHMAD ISROIL TEX" qo'shma korxonasining 2024 yil 28-oktyabrdagi 28/10-01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ZnO nanozarrachalari yordamida sintetik bo'yoqlarni fotokatalitik parchalashda samaradorlik ~90 % ni tashkil etish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola respublikada, 3 ta maqola xorijiy jurnallarda, jumladan 1 ta maqola scopus bazasida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning adabiyotlar sharhida ZnO nanozarrachalarini olish bo‘yicha ilg‘or ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. Mazkur yondashuv tanlovi nanomateriallarning fotokatalitik va adsorbsion xossalarini chuqur o‘rganib, to‘qimachilik sanoati oqava suvlarini ekologik xavfsiz va samarali tozalash texnologiyalarini ishlab chiqish uchun muhim yechim beradi. Saponinlardan foydalanish “yashil” kimyo tamoyillariga mos bo‘lib, ekologik xavfsizlikni ta‘minlasa, dopant ionlari materialning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Dissertatsiyada qo‘llanilgan XRD, SEM, FTIR, UV–Vis kabi zamonaviy tahlil usullari sintez qilingan nanomateriallarning strukturaviy, morfologik, optik va kimyoviy xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi. Shuningdek, fotokatalitik samaradorlikni baholashda organik bo‘yoqlar parchalanish kinetikasini o‘rganish va adsorbsion xususiyatlarni izoterma hamda kinetik modellar asosida tahlil qilish ilmiy natijalarning ishonchliligini ta‘minladi. Shu tariqa, qo‘llanilgan usullar majmuasi tadqiqot vazifalarini to‘liq va samarali yechishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuv sifatida baholandi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob‘ekti va usullari”** bobida tadqiqot obykti sifatida **saponinlar bilan barqarorlashtirilgan va Fe³⁺ ionlari bilan dopirlangan ZnO nanozarrachalari** tanlangani ilmiy jihatdan asosli hamda amaliy ahamiyatga egaligi qayd etilgan. Mazkur yondashuv tanlovi nanomateriallarning fotokatalitik va adsorbsion xossalarini chuqur o‘rganib, to‘qimachilik sanoati oqava suvlarini ekologik xavfsiz va samarali tozalash texnologiyalarini ishlab chiqish uchun muhim yechim beradi. Saponinlardan foydalanish “yashil” kimyo tamoyillariga mos bo‘lib, ekologik xavfsizlikni ta‘minlasa, dopant ionlari materialning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Dissertatsiyada qo‘llanilgan XRD, SEM, FTIR, UV–Vis kabi zamonaviy tahlil usullari sintez qilingan nanomateriallarning strukturaviy, morfologik, optik va kimyoviy xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi. Shuningdek, fotokatalitik samaradorlikni baholashda organik bo‘yoqlar parchalanish kinetikasini o‘rganish va adsorbsion xususiyatlarni izoterma hamda kinetik modellar asosida tahlil qilish ilmiy natijalarning ishonchliligini ta‘minladi. Shu tariqa, qo‘llanilgan usullar majmuasi tadqiqot vazifalarini to‘liq va samarali yechishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuv sifatida baholandi.

Dissertatsiyaning “(ZnO)_n klasterlarining strukturaviy va elektron tabiatini DFT usulida o‘rganish” deb nomlangan bobi (ZnO)_n klasterlarining strukturaviy va elektron xossalari zichlik funksional nazariyasi (DFT) usuli asosida chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan.

(ZnO)_n klasterlarining strukturaviy va energetik xarakteristikalari. (ZnO)_n (n = 10÷35) tarkibli klasterlarning strukturaviy va elektron xossalari kvant-kimyoviy hisoblashlar yordamida o‘rganildi. Hisoblashlar Gaussian 16 va HyperChem dasturlarida yarim emperik (PM3), emperikmas (Ab initio) va DFT usullarida bajarildi. Klasterlar geometriyasi zichlikning funksional nazariyasini (TD-DFT) B3LYP gibrid funksionali va LANL2DZ bazis to‘plami yordamida optimallashtirildi hamda ularning fizik-kimyoviy parametrlariga baho berildi. Molekulyar orbitallarni tahlil qilishda atom orbitallarining chiziqli kombinatsiyasi (LCAO) usulidan foydalanildi. Turli geometrik strukturali klasterlarning Z-matritsasiga oid bog‘ uzunliklari, bog‘lanish burchaklari va bog‘ energiyalari hisoblab chiqildi (1-jadval).



1-rasm. Optimalashtirilgan (ZnO)_n (n=10÷35) klasterlarining strukturalari.


1-jadval.

(ZnO)_n (n=10÷35) klasterlarida turli fizik kattaliklarning B3LYP hisoblashlardan olingan qiymatlari

№	Zn-O bog‘lari uzunligi (Å°)	O-Zn-O bog‘ burchagi (°)	Zn-O-Zn bog‘ burchagi (°)	Zn-O bog‘ energiyasi, kkal/mol
10	1,85±0,04	104,51±0,02	116,32±0,01	123,43
15	1,88±0,01	105,02±0,01	117,56±0,07	135,17
20	1,90±0,01	105,53±0,08	118,15±0,07	166,54
25	1,92±0,05	106,12±0,04	118,46±0,04	168,8
30	1,94±0,02	106,34±0,04	118,91±0,01	169,49
35	1,96±0,05	107,48±0,01	119,24±0,01	177,27

Jadval tahliliga ko‘ra, klasterda atomlar soni ortishi bilan Zn–O bog‘larining o‘rtacha uzunligi biroz ortib boradi. Kvant kimyoviy hisoblash natijalari shuni ko‘rsatadiki, (ZnO)₁₀ klasterining bir qatlamli ichi bo‘sh tetragonal strukturali izomeri eng barqaror bo‘lib, undagi Zn–O bog‘larining o‘rtacha uzunligi 1,85 ± 0,04 Å, o‘rtacha bog‘ energiyasi esa 123,43 kkal/mol ni tashkil etadi. Atomlar soni n = 10 dan n = 35 gacha oshganda Zn–O bog‘ energiyasi 123,43 dan 177,27 kkal/mol gacha ortib, klasterlarning barqarorligi kuchayishini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, (ZnO)_n (n = 10÷35) klasterlarida O–Zn–O bog‘ burchagi sp³ gibridlanish turini saqlagan holda 104,51° dan 107,48° gacha ortishi aniqlangan.

(ZnO)_n sirt tahlili. Klasterlarning sirt energiyasi va sirdagi atomlarning o‘zaro ta’sirlari Xirshfeldning 3D topografiyasi orqali o‘rganildi (2-rasm). Klasterlarning Xirshfeld sirt tahlili Crystal Explorer 17,5 dasturi yordamida o‘rganildi. Xirshfeld sirt tahlili ZnO nanoklasterlarini o‘rganish uchun eng samarali nazariy usullardan biri bo‘lib, u optoelektronika, kataliz va material dizaynidagi ilovalar uchun juda muhim bo‘lgan, ularning sirt reaktivligi, o‘zaro ta’sir turlari va strukturaviy xususiyatlari haqida ma’lumotlarni beradi. $n=10$ va $n=35$ klasterlarining Xirshfeldning 3D sirt tasvirlari 2-rasmدا keltirilgan.




2-rasm. (ZnO)₁₀ (a) va (ZnO)₃₅ (b) klasterlarining Xirshfeld 3D sirt tasvirlari

Rasmdagi rangli xaritalash natijalari shuni ko‘rsatadiki, (ZnO)₁₀ klaster sirtida elektron zichlik kuchli lokalizatsiyalangan bo‘lib, 3D tasvirdagi qizil hududlar yuqori elektron zichligi va past potentsialga ega sohalarni, ko‘k-yashil hududlar esa past elektron zichligi yoki yuqori potentsialli qismlarni ifodalaydi. Qizil hududlar Zn va O atomlari orasida kuchli elektrostatik o‘zaro ta’sir mavjudligini bildiradi. Bunday zichlik kichik klasterlarning sirt reaktivligini oshiradi, chunki ularning sirtida ko‘proq ochiq atomlar mavjud. (ZnO)₃₅ klasterida esa Hirshfeld tahliliga ko‘ra yashil rangli maydonlar ko‘paygan bo‘lib, bu elektron zichligining delokalizatsiyalangan holda ichki qatlamlarga taqsimlanishini ko‘rsatadi. Natijada yirik klasterlarda sirt reaktivligi kamayadi, biroq barqarorligi ortadi.

Xirshfeld 3D sirt topografik xaritasi va unga mos 2D barmoq izlari hisoblashlari CIF formatidagi kirish fayllari asosida bajarilib, supramolekulyar sistemaning barqarorligiga hissa qo‘shuvchi o‘zaro ta’sirlar ulushi aniqlangan. Kristalli muhitda molekula yoki atom egallagan maydon chegarasi Xirshfeld yuzasi sifatida qabul qilinadi. Har bir nuqtada *di* (sirt ichidagi eng yaqin yadrogacha bo‘lgan masofa) va *de* (sirdan tashqaridagi eng yaqin atomlarga bo‘lgan masofa) qiymatlari aniqlanib, ular van-der-Vaals radiuslari asosida normallashtirilgan kontakt masofasi (d_{norm}) orqali umumlashtirilgan. d_{norm} qiymatlaridan foydalanib (ZnO)_n ($n=10\div 35$) klasterlarida Zn–O–Zn va O–Zn–O kabi o‘zaro ta’sirlarning ulushi ikki o‘lchovli barmoq izlari chizmasi yordamida baholandi. 3-rasmدا keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, RDG tahlili vodorod bog‘lanishlari yoki boshqa kuchli kovalent bo‘lmagan o‘zaro ta’sirlarni aniqlash imkonini berdi. Shuni ta’kidlash lozimki, ZnO klasterlarida bevosita Zn va O atomlari orasida van der Vaals kuchlari kuzatilmaydi, chunki bu bog‘lanishlar asosan kovalent-ionli xarakterga ega.

Shunday qilib, RDG tahlili natijalariga ko‘ra, grafikdagi ko‘k mintaqalar Zn va O atomlari o‘rtasidagi ionli o‘zaro ta’sirlarni ifodalab, ular klasterdagi kovalent bo‘lmagan bog‘lanishlarning 27,8÷50,6% ini tashkil qilishi aniqlandi. Yashil


hududlar Zn–O bog‘lanishining barqaror va qutbli kovalent xarakterga ega qismlariga mos kelib, bunday o‘zaro ta’sirlar 15,3÷25,6 % ni tashkil qiladi. Qizil hududlar esa Zn–O aloqalari siqilgan yoki noqulay fazoviy joylashuvlarda paydo bo‘lib, bog‘lanishning to‘yingan qismlarini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar Xirshfeldning ikki o‘lchovli barmoq izlari tahliliga mos kelishi bilan tasdiqlandi. RDG bo‘yicha Zn...O o‘zaro ta’sirlarining bog‘lanish energiyasi 5,538 kJ/mol ekanligi hisoblab chiqildi.



3-rasm. (ZnO)_n (n=10÷35) klasterlarda kovalent bo‘lmagan o‘zaro ta’sirlar ulushi

(ZnO)_n klasterlarining elektron tabiati. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ZnO klasterlari va saponin bilan hosil qilingan supramolekulyar tizimlar uchun elektron lokalizatsiya funksiyasi (ELF) va lokallashgan orbital ko‘rsatkichi (LOL) xaritalari tuzilib, elektron bulutlarning taqsimoti tahlil qilindi. Aniqlanishicha, HOMO–LUMO energiya farqi kamaygan sari klasterlarning elektron qabul qilish qobiliyati ortib, elektrofil indeks yuqorilaydi, bu esa (ZnO)₃₀ va (ZnO)₃₅ kabi yirik klasterlarning yuqori reaksiyon faolligini ko‘rsatadi. Atomlar sonining ortishi bilan molekuladagi zaryad zichligi qayta taqsimlanib, klasterlarning kimyoviy faolligi oshishi kuzatildi. Shuningdek, klasterlarning taqiqlangan hududi ($E_{\text{HOMO}}-E_{\text{LUMO}}$) aniqlandi: masalan, (ZnO)₁₀ klasterida $E_{\text{HOMO}} = -0,30389$ Hatri va $E_{\text{LUMO}} = -0,12819$ Hatri bo‘lib, bu qiymatlar ularning UV–Vis yutilish spektrida elektronlarning HOMO dan LUMO ga o‘tishi orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

(ZnO)_n (n=10÷35) klasterlari uchun elektron holatlar HOMO va LUMO orbitall energiyalari 4.-rasmda keltirilgan.



4.-rasm. (ZnO)_n lar uchun LUMO va HOMO MO larining qiymatlari

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, $(\text{ZnO})_n$ ($n=10\div 35$) klasterlarida atomlar soni ortishi bilan HOMO–LUMO energiyalari farqi, ya'ni taqiqlangan hudud kengligi kamayadi: $n=10$ klasterida bu qiymat 4,78 eV bo'lsa, $n=35$ klasterida 3,12 eV ga teng. Bu o'zgarish Zn atomlarining 3d va O atomlarining 2p orbitallari hissasi bilan bog'liq. Shu bilan birga, o'tkazuvchi zonadagi energiya 3,256 eV dan 4,158 eV gacha ortib, bu jarayon Zn atomlarining 4s hamda O atomlarining 2s va 2p orbitallari ishtirokida yuzaga kelishi aniqlangan.

HOMO va LUMO orbitallar xossalaridan foydalanib klasterlarning kimyoviy barqarorligi, elektrofil indeksi va kimyoviy potentsiallarining qiymatlari hisoblandi (2-jadval).

2-jadval

$(\text{ZnO})_n$ klasterlarining kimyoviy potentsiali (μ), barqarorligi (η) va elektrofillik indeksi (ω)

$(\text{ZnO})_n$	μ (eV)	η (eV)	ω (eV)
10	4,5	2,0	5,06
15	4,5	1,8	5,63
20	4,5	1,5	6,75
25	4,5	1,3	7,79
30	4,5	1,1	9,20
35	4,5	1,0	10,13


2-jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, barcha $(\text{ZnO})_n$ klasterlarining kimyoviy potentsiali (μ) bir xil – 4,5 eV bo'lib, bu klasterlar orasida potensial farqi yo'qligini ko'rsatadi. Barqarorlik indeksi (η) klaster o'lchami oshishi bilan kamayadi ($n = 10$ uchun 2,0 eV, $n = 35$ uchun 1,0 eV), bu esa katta klasterlarning barqarorligi pastroq ekanligini bildiradi. Elektrofillik indeksi (ω) esa n ortishi bilan oshib borib, kichik klasterlarga nisbatan yirik klasterlarning elektrofillik qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatadi ($n = 10$ uchun 5,06 eV, $n = 35$ uchun 10,13 eV).

Umuman olganda, tadqiqotda $(\text{ZnO})_n$ klasterlarining geometrik parametrlari, bog' uzunliklari, bog'lanish burchaklari, umumiy energiyasi va barqarorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinib, klaster o'lchami ortishi bilan barqarorlikning pasayishi hamda energetik parametrlarning o'zgarish tendensiyalari aniqlangan. Shuningdek, HOMO–LUMO energiya farqlari, elektrofillik va ionlashish potentsiali kabi elektron xususiyatlari hisoblab chiqilib, klaster tarkibidagi ZnO molekullari soni oshishi bilan elektron zichligi va energetik bo'shliqlarning o'zgarishi ko'rsatilgan. Ushbu natijalar ZnO klasterlarining fotokatalitik va optoelektron sohalarda qo'llanilish imkoniyatlarini asoslash uchun muhim ilmiy zamin yaratadi.


Dissertatsiyaning **“ZnO nanozarrachalarini sintez sharoitlarini maqbullashtirish va fotokatalitik faolligi”** deb nomlangan bobida ZnO nanozarrachalarini saponin va flavonoidlar ishtirokida sintez qilish sharoitlarini maqbullashtirish, ularni Fe^{3+} ionlari bilan dopirlash orqali optik va fotokatalitik xossalarini yaxshilash hamda olingan nanomateriallarning fotokatalitik samaradorligini baholashdan iborat.

ZnO nanozarrachalarini sintezi sharoitlarini maqbullashtirish. Tadqiqotda zol-gel va kimyoviy cho'ktirish usullari qo'llanilib, saponin (5-rasm) va flavonoidlar

(6-rasm) yordamida zarrachalar barqarorlashtirildi. Ushbu tabiiy sirt faol moddalar Zn^{2+} ionlari bilan kompleks hosil qilib, agregatsiyani kamaytiradi va barqaror, mayda o'lchamli zarrachalar shakllanishini ta'minlaydi. pH (9÷11), harorat (60÷90 °C), reaksiya vaqti (2÷5 soat) hamda reagent konsentratsiyasi ($Zn^{2+} = 0,05-0,1 M$; saponin/flavonoid = 0,01÷0,03 M) optimal sharoitlar sifatida aniqlanib, ushbu parametrlar nazoratida sintez qilingan ZnO nanozarrachalari bir jinsli, yuqori dispers va yuqori fotokatalitik faollikka ega bo'lishi ta'minlandi.



5-rasm. SFM saponin ishtirokida hosil bo'lgan ZnO



6-rasm. Rutin bilan barqarorlashtirilgan ZnO

ZnO zarrachalari o'lchamining Zn^{2+} ionlari konsentratsiyasi, pH va temperaturaga bog'liqligining regression tahlili. ZnO nanozarrachalar o'lchamining (d_{ZnO}, nm) Zn^{2+} ionlari konsentratsiyasi ($C_{Zn^{2+}}, M$), pH va harorat ($t, ^\circ C$) ga bog'liqligi bo'yicha olingan (5.1-jadval) natijalar asosida

$$d_{ZnO}, nm = f(C_{Zn^{2+}}, pH, t)$$

ning regression modelini tuzish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

5.1-jadval

ZnO nanozarrachalar o'lchamining Zn^{2+} ionlari konsentratsiyasi (M), pH va harorat ($^\circ C$) ga bog'liqligi bo'yicha olingan natijalar

№	Zn^{2+}, M	pH	$t (^\circ C)$	d_{ZnO}, nm
1	0,0001	9	60	24
2	0,0001	10	70	22
3	0,0001	11	80	21
4	0,0003	9	65	23
5	0,0003	10	75	21
6	0,0003	11	85	20
7	0,0005	9	70	22
8	0,0005	10	80	20
9	0,0005	11	90	19
10	0,0007	9	75	21
11	0,0007	10	85	19
12	0,0007	11	90	18
13	0,0010	9	75	20
14	0,0010	10	85	18
15	0,0010	11	90	17

ZnO nanozarrachalari o'lchamining Zn^{2+} konsentratsiyasi, pH va temperaturaga bog'liqligi bo'yicha regressiya tahlil natijalarida quyidagi regression tenglama olindi:

$$d_{ZnO}, nm = 40,46 - 4326,58 \cdot C_{Zn^{2+}} - 1,71 \cdot pH + 0,01 \cdot t.$$

Regression tahlili natijalariga ko'ra, qurilgan model yuqori darajada adekvat bo'lib, determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,973$ ni tashkil etdi, ya'ni model ma'lumotlarning 97,3 % qismini tushuntira oladi. Eng muhim omil sifatida Zn^{2+} konsentratsiyasi aniqlanib, uning har 0,0001 M ga oshishi zarracha o'lchamini o'rtacha 0,43 nm ga kamaytirishi qayd etildi ($P < 0,001$). pH ham kuchli ta'sirchi parametr bo'lib, har bir birlikka oshganda zarracha o'lchami taxminan 1,71 nm ga kamayadi ($P < 0,001$). Harorat omilining koeffitsienti esa statistik jihatdan ahamiyatli emasligi ($P = 0,544$) sababli, uning ta'siri boshqa parametrlar bilan solishtirganda sezilarli emasligi aniqlandi. Ozod had qiymati 40,46 bo'lib, nazariy jihatdan Zn^{2+} konsentratsiyasi va pH nol bo'lgan sharoitda zarrachalar o'lchami ~40 nm atrofida bo'lishi bashorat qilinadi. Shu bilan, model zarracha o'lchamining asosan Zn^{2+} ionlari konsentratsiyasi va pH ga bog'liqligini aniq ko'rsatadi.

Regression tahlili natijalari modelning yuqori aniqlikka ega ekanini ko'rsatdi ($R^2 = 0,944$). ANOVA tahliliga ko'ra, Zn^{2+} konsentratsiyasi va pH zarracha o'lchamiga eng kuchli ta'sir ko'rsatgan, haroratning ta'siri esa nisbatan kichik bo'lgan. Zn^{2+} va pH ortishi zarracha o'lchamini kamaytiradi, harorat oshishi esa uni biroz kattalashtiradi. Optimal sharoitlar: $Zn^{2+} = 0,001$ M, pH = 9–10 va $T = 25-60$ °C bo'lib, bu parametrlar kichik (8–20 nm) o'lchamli, barqaror va yuqori fotokatalitik faollikka ega ZnO nanozarrachalarini olish uchun eng maqbul deb topildi.


Ushbu bo'limda ZnO nanozarrachalarini Fe^{3+} ionlari bilan dopirlanish jarayoni va uning natijalari yoritilgan. Fe^{3+} ionlari ZnO panjarasiga kiritilganda, kislorod vakansiyalari hosil bo'ladi, tarmoqli oraliq'i torayadi va elektron-teshik juftliklari rekombinatsiyasi sekinlashadi, natijada fotokatalitik faollik ortadi. Dopant sifatida $Fe(NO_3)_3 \cdot 9H_2O$ 0,5–3 mol % miqdorda qo'shib, Zn^{2+} ionlarining bir qismini almashtiradi. 400–500 °C da kuydirish jarayoni natijasida kristall tuzilma mustahkamlanadi. Dopirlangan namunalar oqdan och jigarranggacha rang o'zgarishini namoyon etdi, bu Fe^{3+} ionlarining kiritilishini tasdiqlaydi (7-rasm). DLS, TEM va SEM tahlillari zarracha o'lchamining 30–40 nm gacha oshganini ko'rsatdi. Sol-gel va kimyoviy cho'ktirish usullari saponin va flavonoidlar ishtirokida zarrachalarning bir jinsliligini, yuqori kristallik darajasini va ekologik xavfsizligini ta'minlaydi. Umuman olganda, Fe^{3+} dopirlanishi ZnO nanozarrachalarining fotokatalitik, optik va elektron xossalari yaxshilab, ularni ekologik tozalash, sensor va energetika tizimlarida qo'llash uchun istiqbolli materialga aylantiradi.

ZnO va Fe^{3+} bilan dopirlangan ZnO nanozarrachalarining fizik-kimyoviy tahlili. Fe^{3+} ionlari bilan dopirlangan ZnO nanozarrachalari oddiy ZnO ga nisbatan kengaytirilgan fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'lib, ularning tahlili zarrachalarning strukturaviy, sirt, morfologik va optik parametrlarini baholash imkonini beradi. Ushbu bo'limda dopirlangan nanomateriallarning kristallik darajasi, zarracha


o'lchami, morfologiyasi, sirt maydoni, funktsional guruhlari va optik xossalari keng ko'lamda o'rganiladi.

XRF tahlili natijalariga ko'ra, sintez qilingan ZnO nanozarrachalari yuqori sof tarkibga ega bo'lib, asosiy komponent sifatida faqat rux va kislorod aniqlangan. Spekrda 8,6 keV da asosiy Zn-K α cho'qqisi qayd etilgan, begona aralashmalar topilmagan, bu esa namunalar tozaligini va sintezning samaradorligini tasdiqlaydi. Fe³⁺ bilan dopirlangan ZnO namunalarida esa Zn-K α cho'qqilari bilan bir qatorda Fe-K α cho'qqilari ham kuzatilib, Fe³⁺ ionlarining Zn²⁺ panjarasiga kirgani va bir jinsli taqsimlangani aniqlandi.

XRD tahlili natijalariga ko'ra, toza ZnO nanozarrachalari rux oksidining geksagonal wurtzit fazasiga ega bo'lib, difraktogrammada $2\theta \approx 31,7^\circ, 34,4^\circ, 36,2^\circ, 47,5^\circ, 56,6^\circ, 62,8^\circ$ va $67,9^\circ$ da joylashgan cho'qqilar qayd etilgan (8-rasm).




7-rasm. Fe³⁺ ionlari bilan dopirlangan ZnO kristallari



8-rasm. ZnO va Fe³⁺ bilan dopirlangan ZnO nanozarrachalarining difraktogrammalari

ZnO va Fe³⁺ bilan dopirlangan ZnO nanozarrachalarining yutilish spektrlari o'rganildi. UB-Vis tahlil natijalariga ko'ra (9-rasm), toza ZnO nanozarrachalarida yutilish cho'qqisi ≈ 370 nm da kuzatilib, bu keng tarmoqli ($E_g \approx 3,3$ eV) yarim o'tkazgich tuzilmasiga mos keladi. Fe³⁺ bilan dopirlanganda yutilish cho'qqisi 410–430 nm oralig'iga siljib, ko'rinadigan nurlar sohasida faollik oshgan.

Bu holat Fe³⁺ ionlarining Zn²⁺ o'rnini bosishi natijasida hosil bo'lgan kislorod vakansiyalari va qo'shimcha energiya darajalari bilan bog'liq bo'lib, materialning fotokatalitik samaradorligini kuchaytiradi.



9-rasm. ZnO va Fe³⁺ ionlari bilan dopirlangan ZnO UB spektrlari

IR spektrlari ham bu o'zgarishni tasdiqlaydi: Zn–O bog'iga tegishli 694–702 cm^{-1} cho'qqi dopirlangan namunada 670–690 cm^{-1} ga siljib, kengaygan; 560–590 cm^{-1} atrofida yangi Fe–O tebranish cho'qqilari paydo bo'lgan. 854–880 cm^{-1} oralig'idagi panjara tebranishlari saqlanib qolgan, 1420 cm^{-1} da esa karbonat guruhlariga oid cho'qqilar qayd etilgan. Shunday qilib, Fe^{3+} ionlari ZnO panjarasiga kirib, defektlar va kislorod vakansiyalarini oshiradi, bu esa yutilish sohasining ko'rinadigan nurlarga siljishiga va nanomaterialning fotokatalitik xossalarining yaxshilanishiga olib keladi.

